



UZULIKSIZ TA'LIM JARAYONIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING METODIK TA'LIMOTI

Shamsiyev R.M.

O'zFPI Jismoniy madaniyat va sport kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, uzuliksiz ta'lim, jarayon, yoshlar, rivojlanish, shakillanish.

Ключевые слова: физическое воспитание, непрерывное образование, процесс, молодежь, развитие, становление.

Key words: physical education, continuous education, process, youth, development, formation.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada uzuliksiz ta'lim jarayonida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning metodik ta'limoti haqida tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется методическое учение организации занятий по физическому воспитанию в процессе непрерывного образования.

SUMMARY:

This article analyzes the methodological teaching of organizing physical education classes in the process of continuous education.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, jismoniy tarbiya va sportning jamiyat hayotidagi nufuzi yanada ortib, ushbu soha nafaqat sog'lom avlodni tarbiyalash omili bo'lib qoldi, balki bu yo'nalish yosh avlod ongi va qalbida o'zgacha havas-ishtiyoq uyg'otdi. Bu esa yoshlarni sog'lom turmush tarziga tayyorlash, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining mazmuni va sifatini oshirib, o'ziga xos muhim vositalardan bo'lmoqda[1].

Qayd etish joizki, yoshlarning jismoniy-intellektual resurslarini uyg'un rivojlantirishda, ayniqsa, sportning imkoniyatlaridan keng foydalanish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi bejiz emas. Chunki sport mazkur resurslarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashning zarur omilidir. «Sport nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga yetishishda ham muhim omildir. Haqiqatan ham, u irodani toblaydi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi».

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni (2020), Davlat ta’lim standartlari asosida jismoniy madaniyat fakultetlarining o‘quv rejasi yangidan tuzilib, ularda ixtisoslik bo‘yicha nazariy fanlar va amaliy turlar (sport turlari) mavjuddir. Ularning tarkibida «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar», «Ma’naviyat asoslari» kabi yangi o‘quv fanlarning kiritilishi muhim voqelikdir. Ya’ni jismoniy madaniyat va sport sohasida talabalarga o‘z ixtisosliklarini egallashda milliy qadriyatlar va ularning mazmunidagi milliy an’analar haqida bilim olishga imkoniyatlar yaratildi.

Bunday talablarni amalda boshqarish masalalari ishlab chiqarish mehnat jamoalari, turli muassasalar, aholi istiqomat joylari, dam olish va hordiq chiqarish oromgohlari makonlarining ijtimoiy mehnat sharoitlari, ijtimoiy mehnat ta’minotlari bilan bog‘liqligini e’tiborga olish lozim. Ya’ni ularda ommaviy sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil qiluvchi tashkilotchi-murabbiylarga bo‘lgan ehtiyojlar, zaruriyatlar asosida shtatlarni belgilash, zarur bo‘lgan sport tashkilotlari yoki bakalavr oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga buyurtmalar berishni yo‘lga solish lozim bo‘ladi[2]. Ana shu tadbirlar izga tushirilsa, ma’lum sohalaridagi tashkilotchilarning ko‘payishi, ularning ish faoliyatlarida milliy an’analarni keng yoyish, ulardan maqsadli foydalanish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standartlari (2021) hamda o‘quv yurtlarida jismoniy ta’limning uzluksizligini ta’minlash, o‘quvchi yoshlar va talabalarni ommaviy ravishda sport tadbirlariga jalb etish muhim vazifa qilib qo‘yilgan. Shu asosda oliy ta’lim tizimi uchun «Jismoniy tarbiya» dasturi (2021) ishlab chiqilib, ular amalda qo‘llanilmoqda. 2020 yil 1 martdan boshlab «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari takomillashtirilgan xolda qayta joriy etildi. Ularning mazmun, shakl va maqsadlari o‘quvchi yoshlar va talabalarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, mehnat va mudofaa ishlariga layoqatli qilib yetishtirish asos qilib qo‘yiladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar, madaniyat, tibbiyot, ta’lim va sport sohalaridagi ommaviy tadbirlarning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni kasb-hunar yo‘lida tahsil olayotgan yoshlarning har tomonlama yetuk bo‘lishi, davr talabalariga to‘la javob berishi, bunda mehnat qilish, Vatanga sadoqat his-to‘yg‘ulari va e’tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha fazilatlariga ega bo‘lishni taqozo etmoqda. Bulardan ta’kidlashdan maqsad shundaki, yuqoridagi «Jismoniy tarbiya» dasturlarida milliy qadriyatlarni jismoniy tarbiya darslarida o‘rganish, ayniqsa milliy an’analardan jismoniy tarbiya, sport, sayohat va xalq milliy o‘yinlaridan foydalanish yo‘llari haqida to‘la ma’lumotlar yo‘q. Bu esa o‘quvchi yoshlarning milliy an’analar haqidagi tushunchalari,



bunda jismoniy tarbiyaning mohiyatini bilishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yana bir tomoni shundaki, aksariyat jismoniy tarbiya o'qituvchilari dasturdan chiqqa olmaydi, ijodiy yondashish, amaliy tashabbuslar kam uchraydi. Bunday salbiy xususiyatlar talabalarning o'quv amaliyotlari (pedagogik va tashkiliy) jarayonida aynan namoyon bo'lmoqda[3].

Ma'lumki, jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda metodik ta'limoti o'ziga xos xususiyatlari bor:

- talabalarga jismoniy tarbiya darslarida o'quv rejasi asosiy dars olib borilish;
- talabalar tanlangan sport turi mutaxassisligi bo'yicha tayyorgarlik va mahorat oshirish;
- talabalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida shakl, mazmun va metodda olib boradi.

Fakultetdagi professor-o'qituvchilarning salohiyotlari, ularni qiziqtirgan maxsus fanlar (ixtisoslikka kirish, ilmiy tadqiqotlar metodikasi, milliy qadriyatlar va jismoniy tarbiya va h.k.) bo'yicha kurslar tashkil etilgan. Bu jarayonlar talabalarda u yoki bu darajada ixtisoslashgan tushuncha va bilimlarni egallashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Lekin, bu holat barcha oliy o'quv yurtlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan, ularning sifati yuqori darajada, deb bo'lmaydi. Buning ham ba'zi bir obyektiv va subyektiv sabablari bor:

- jismoniy tarbiya va milliy an'analarning ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarini mujassamlashtiruvchi o'quv-uslubiy qo'llanmalar, tavsiyanomalar mukammal ravishda ishlab chiqilmagan;

- sport turlari bo'yicha nazariy tushunchalar va amaliy-kasb bilimlarini chuqurlashtirishda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarda an'anal haqidagi bilimlar ancha sayoz;

- referat, kurslar va bitiruv (diplom) ishlarida ma'naviy va jismoniy kamolot mavzulari ularning o'zaro uzviy bog'liqliklari mufassal yoritilmagan;

- magistrlar, tayanch doktorantlar va mustaqil ilmiy izlanuvchilar tomonidan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari hamda hozirgi davr talablari asosida milliy an'analarda maqsadli foydalanish usullari, amaliy ishlarga doir maxsus tadqiqotlar olib borilmayotir.

Shu asosda iqtidorli bolalarni tanlash, tajribasinovlardan o'tkazish va ularni sport maktablariga safarbar qilish alohida ta'kidlangan. Bunday tashkiliy, amaliy va tarbiyaviy sharoitlarda milliy an'analarda qo'llanilayotgan sport chiqishlari, ommaviy namoyishlar muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Shu sababdan jismoniy madaniyat fakultetlarining barcha bosqichlaridagi talabalarga bolalar sporti va milliy an'analarning bir-biriga tarbiyaviy; tashkiliy jihatdan mutanosiblik usullarini o'rgatish lozim bo'ladi. Bunday ijtimoiy-



tarbiyaviy ta'limotlar va amaliy faoliyatlarni barcha nazariy va amaliy (sport turlari) darslar hamda sport mashg'ulotlari jarayonida o'rgatish lozim. Har bir sohadagi kabi jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda yetarli darajada nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qildirish eng asosiy faoliyatlardan biridir.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar mazmunida jismoniy ta'lim, sport, sayohatlar va xalq milliy o'yinlarining milliy xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlariga katta e'tibor berilishi lozim. Jumladan, mamlakat miqyosidagi o'tkazilayotgan nufuzli ommaviy sport musobaqalari, madaniy-sport tadbirlarining ochilishi va yakunlarida namoyish etilayotgan sport chiqishlari, ko'rgazmali namoyishlar, targ'ibot yo'nalishlaridan tuman (shahar) va boshlang'ich tashkilotlarda namuna sifatida foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilishi kerak. Eng asosiysi jismoniy ta'lim o'qituvchilari faqat mashg'ulot o'tkazish, sport turlari bo'yicha murabbiylar esa faqat murabbiylik faoliyati bilan shug'ullanib qolmasdan o'quvchi va talabalarni sport bilan band bo'lish jarayonini hamkorlikda tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son farmon
2. Abdullaev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik, - Farg'ona-2020 y. 286-b.
3. Maxmudov B.A. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent-2023 y. 128-b.